

O‘ZBEKISTON BANK TIZIMIDA ISLOHOTLAR VA ULARNING RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

X.A.Ulashev – SamISI dotsenti, i.f.f.d

S.S.Shodiyev – SamISI ik-524 guruh talabasi

M.Sh.Shakarov – SamISI ik-524 guruh talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston bank tizimidagi islohotlar va ularning rivojlanish yo‘llari tahlil qilingan. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng, bank tizimi zamonaviy bozor iqtisodiyotiga moslashish jarayonini boshladi. Bank tizimida amalga oshirilgan islohotlar, shu jumladan ikki bosqichli bank tizimi, Markaziy bankning mustaqilligi, tijorat banklarining xususiy sektorga o‘tishi va huquqiy bazaning takomillashuvi, mamlakat iqtisodiyotini barqarorlashtirish va rivojlantirishda muhim rol o‘ynadi. Islohotlarning davom etishi va bank tizimini yanada rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalar, xalqaro standartlar, raqamli bank xizmatlari va moliyaviy innovatsiyalarni joriy etish zarurati ta’kidlangan. Islohotlar, shuningdek, iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va jamiyatda moliyaviy xabardorlikni oshirishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, bank tizimi, islohotlar, rivojlanish yo‘llari, tijorat banklari, Markaziy bank, ikki bosqichli tizim, moliyaviy texnologiyalar, raqamli transformatsiya, huquqiy asos, iqtisodiy barqarorlik, bank xizmati, moliyaviy innovatsiyalar, bozor iqtisodiyoti.

Kirish. Bank tizimi bozor iqtisodiyotining ajralmas va asosiy qismi bo‘lib, tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi banklarga yangi operatsiyalarni amalga oshirish imkonini yaratadi. Shuning uchun, O‘zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan zamonaviy bank tizimini yaratish zarurati paydo bo‘lgan. O‘zbekiston bank tizimining asosiy maqsadi — jahon standartlariga mos, rivojlangan milliy kredit tizimini tashkil etish, iqtisodiyot va aholining bo‘sh turgan mablag‘larini jalb qilish va samarali taqsimlash orqali aholining talablarini qondirish va ularning yashash sharoitlarini yaxshilashdir. Bu maqsadga erishish uchun davlat tomonidan bank sektori rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, bank tizimi barqarorligini ta’minlash, bank nazorati tizimini takomillashtirish, shuningdek, banklarning depozit, kredit va investitsiya faoliyatlarini rivojlantirishga erishish zarur. Bundan tashqari, banklar o‘rtasida raqobatni oshirish, nobank tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish, moliya-kredit sektorining huquqiy bazasini mustahkamlash va ularning moddiy-texnik sharoitlarini yaxshilash kabi chora-tadbirlar ko‘riladi. Bank tizimini qayta tashkil qilish quyidagi tamoyillar asosida amalga oshirilishi kerak: xorijiy va mahalliy investorlarning ishonchini qozonish maqsadida bank tizimi barqarorligini

ta'minlash; bank islohotlarining umumiy iqtisodiy islohotlar bilan uyg'unligini ta'minlash; bank tizimini bosqichma-bosqich takomillashtirish orqali jahon tizimiga yaqinlashtirish; pul-kredit siyosatini mamlakatning ichki ehtiyojlari va iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olgan holda olib borish; bank faoliyatida mijozlar manfaatlarini ustun qo'yish.

O'zbekiston bank tizimi rivojlanishining boshlanishi mustaqillikka erishgan davrdan boshlangan bo'lib, bu davrni bir nechta bosqichlarga bo'lish mumkin. Birinchi bosqich 1991-1994 yillarni o'z ichiga oladi. Ushbu davrda, 1992 yilning sentyabrigacha, O'zbekiston davlat banki sobiq SSSR Davlat bankining respublika bo'limi sifatida faoliyat ko'rsatgan va davlat korxonalarini uchun kredit resurslarini taqsimlash, emission operatsiyalarni amalga oshirish bilan shug'ullangan. Boshqa tarmoq banklari ham davlat mulkiga asoslangan edi. 1988 yilda O'zbekistonda ikki pog'onali bank tizimini tashkil etish jarayoni boshlangan bo'lsa-da, bu maqsad to'liq amalga 1994 yilda erishildi. Bu davrda Markaziy bankning tashkiliy tuzilmasi va faoliyat uslubi o'zgardi, tijorat banklarining soni va ularning operatsiyalarining miqdori sezilarli darajada oshdi. 1991 yil 15 fevralda «Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi» qonun qabul qilinishi, ikki bosqichli bank tizimini yaratish jarayonining tamal toshi bo'ldi. Ushbu qonunga ko'ra, davlat organlari Markaziy bank faoliyatiga aralashmasligi kerakligi va faqat Respublika Oliy Majlisiga hisobot berishlari lozimligi belgilab qo'yildi. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning birinchi bosqichida, pul-kredit siyosatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat edi: Markaziy bank boshchiligidagi keng tarmoqli tijorat va xususiy banklarni tashkil qilish; Yirik chet el banklarining bo'limlari va vakolatxonalarini ochish uchun sharoit yaratish; Barqaror pul muomalasini ta'minlash, kredit va naqd pul emissiyasini keskin cheklash; O'zbekiston milliy pul birligini muomalaga kiritish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish. Qayta tashkil etish jarayonining birinchi bosqichida davlat banklarining yangi strukturasi yaratish boshlandi. Bu jarayon quyidagi asosiy tamoyillarga asoslandi: Ikki bosqichli bank tizimini shakllantirish: Markaziy bank va ixtisoslashgan banklarni tashkil etish; Ixtisoslashgan banklarni xo'jalik hisobiga o'tkazish; Kredit munosabatlarining shakllarini takomillashtirish. Ikkinchi bosqich, ya'ni 1994 yildan keyingi davrda, O'zbekiston bank tizimining rivojlanishini belgilab beruvchi muhim qonunlar qabul qilindi. 1995 yil 21 dekabrda «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi, 1996 yil 25 aprelda esa «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunlar qabul qilindi. Ushbu qonunlar asosida banklar faoliyatining huquqiy asoslari belgilab berilib, ularni takomillashtirish choralari ishlab chiqildi.

Bugungi kunda tijorat banklarining samarali faoliyatini ta'minlash uchun bank nazorati va monitoringi, xalqaro talablarga moslashish, yangi hisoblar tizimiga o'tish, chet el banklarining sho'balarini ochish, to'lov tizimini takomillashtirish, banklar faoliyatini rivojlantirish kabi masalalar o'z yechimini topmoqda.

№	БАНК	Умумий рейтинг	Рейтинг ўзгариши	Молиявий воситачилик бўйича рейтинг	Молиявий оммабоплик бўйича рейтинг	Капитал етарлилиги бўйича рейтинг	Активлар сифати бўйича рейтинг	Бошқарув самарадорлиги бўйича рейтинг	Даромад олиш салоҳияти бўйича рейтинг	Ликвидлилик бўйича рейтинг
1	Капитал банк	1	0	3	1	17	1	8	10	3
2	Траст банк	2	0	5	10	1	4	7	2	1
3	Азия Альянс банк	3	1	2	12	16	6	6	6	2
4	Ҳамкор банк	4	-1	11	3	10	2	3	1	6
5	Ипак йўли банк	5	1	13	2	11	3	4	4	4
6	Инвест Финанс банк	6	-1	1	11	13	5	12	13	5
7	Ориент Финанс банк	7	0	7	17	4	7	5	3	7
8	Халқ банки	8	2	6	7	6	15	10	8	9
9	Алюқа банк	9	-1	4	8	9	10	13	15	10
10	Ипотека банк	10	-1	15	5	8	17	11	5	12
11	Микрокредит банк	11	0	10	6	5	11	17	11	13
12	Ўзмилийбанк	12	1	16	15	2	14	1	7	14
13	Агробанк	13	-1	12	4	7	9	16	16	11
14	Ўзсаноатқурилишбанк	14	0	17	16	14	12	2	9	16
15	Бизнесни ривожлантириш банки	15	0	14	9	3	16	14	12	8
16	Турон банк	16	0	8	13	15	8	15	14	17
17	Асака банк	17	0	9	14	12	13	9	17	15

№	БАНК	Умумий рейтинг	Рейтинг ўзгариши	Молиявий воситачилик бўйича рейтинг	Молиявий оммабоплик бўйича рейтинг	Капитал етарлилиги бўйича рейтинг	Активлар сифати бўйича рейтинг	Бошқарув самарадорлиги бўйича рейтинг
1	Универсал банк	1	2	1	3	10	1	3
2	Давр банк	2	-1	9	2	12	2	7
3	ТВС банк	3	1	7	4	11	9	5
4	Анор банк	4	1	1	1	14	3	10
5	Зираат банк	5	-3	1	9	8	7	4
6	Октобанк	6	1	1	14	1	12	1
7	Тенге банк	7	-1	10	5	9	10	11
8	Пойтахт банк	8	0	12	8	1	4	6
9	ЎзҚДБ банк	9	2	12	10	1	6	2
10	Гарант банк	10	0	1	6	13	11	9
11	АВО банк	11	1	1	11	1	13	12
12	Ҳаёт банк	12	2	8	13	1	8	13
13	Мадад инвест банк	13	-4	11	7	1	14	8
14	Янги банк	14	-1	12	12	1	5	14

O‘zbekiston banklarining 2024 yil I chorak reytingi

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi 2024 yilning I choragi uchun "Banklar faollik indeksini" hisoblab chiqdi, uning asosida banklar reytingi yangilandi. Indeks 31 ta tijorat banklari: 17 ta yirik va 14 ta kichik banklar uchun hisoblandi.

Yirik banklar ichida yetakchilikni kiritgan banklar:

Kapitalbank;

Trast bank;

Aziya alyans bank.

Kichik banklar ichida esa:

Universal bank;

Davr bank;

TBC bank.

Tadqiqot xususiy sektorning bank aktivlaridagi ulushining o‘zgarishlarini kuzatish, bank sektoridagi islohotlar va transformatsiya jarayonlarining samaradorligini baholash maqsadida olib boriladi.

Tahlil va natijalar. O‘zbekiston bank tizimi mustaqillikka erishganidan so‘ng, muhim islohotlarga duch keldi. Islohotlarning asosiy maqsadi iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash, moliyaviy sektorni mustahkamlash va xalqaro moliyaviy standartlarga moslashish edi. Bank tizimidagi islohotlar, ayniqsa ikki bosqichli tizimning joriy etilishi, Markaziy bankning mustaqil faoliyat yuritishi va tijorat banklarining xususiy sektorga o‘tishi bilan bog‘liq. Bank tizimi davlat boshqaruviga asoslangan yagona strukturasi bilan ikki bosqichli tizimga o‘tdi, bu esa tijorat banklarining mustaqil ishlashiga imkon yaratdi. Islohotlarning muvaffaqiyati uchun, bank tizimining huquqiy bazasi va yangi qonunlarning qabul qilinishi muhim o‘rin tutdi. Bu qonunlar bank tizimini mustahkamlash, tijorat banklarining faoliyatini belgilash, va ularning ish usullarini yanada takomillashtirishga xizmat qildi. Shuningdek, iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash va moliyaviy erkinlikni oshirish uchun pul-kredit siyosatidagi o‘zgarishlar ham samarali bo‘ldi. Bank tizimida innovatsiyalarni joriy etish, raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish va xalqaro bank tizimlariga yaqinlashish banklar va iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirdi. Bank tizimi faqat moliyaviy resurslarni taqsimlashni emas, balki xalqaro moliya bozorida ham o‘z o‘rnini topishga yordam berdi. Islohotlar natijasida bank tizimi barqarorlashib, iqtisodiyotning rivojlanishiga xizmat qildi. Shuningdek, xalqaro moliya bozorlariga integratsiya jarayonlari osonlashdi, bu esa O‘zbekistonning moliyaviy sektorini global miqyosda raqobatbardosh qilishga olib keldi. Shunday qilib, O‘zbekiston bank tizimi islohotlari iqtisodiy barqarorlik, raqamli transformatsiya va xalqaro integratsiya sohalarida sezilarli o‘zgarishlarni ta‘minladi va kelajakda yanada rivojlanib, bozor iqtisodiyoti talablariga moslashishni davom ettiradi. 2024 yilning birinchi choragida O‘zbekiston bank tizimining faoliyatidagi asosiy ko‘rsatkichlar quyidagicha bo‘ldi: Bank

tizimining jami aktivlarining o'sish sur'ati sekinlashdi. 2022-2023 yillarda bu ko'rsatkich 20-30% atrofida bo'lsa, 2024 yil 1 mart holatiga kelib u 15,4%ni tashkil etdi. Bank tizimi aktivlari 648,6 trln. so'mni, majburiyatlari esa 549,6 trln. so'mni tashkil etdi. Bank tizimi aktivlarining 67,4 foizi, kredit portfelining 70,1 foizi (331,2 trln. so'm) va depozitlarning 50,7 foizi (120,6 trln. so'm) 10 ta davlat ulushi mavjud banklarga to'g'ri keladi, qolgan qismi esa 25 ta xususiy banklarga tegishli. Davlat banklarida 100 so'm kreditga 36 so'm (o'tgan yilgi ko'rsatkich: 39 so'm) depozit jalb qilingan bo'lsa, xususiy banklarda bu ko'rsatkich 83 so'mni (o'tgan yil: 93 so'm) tashkil qilgan. Yil boshidan buyon bank depozitlarining o'sish sur'ati sekinlashdi. O'tgan yilning birinchi choragida bank tizimi depozitlari 42%ga o'sgan bo'lsa, hisobot davrida bu ko'rsatkich 13%ni tashkil etdi. Xorijiy valyutalarda depozitlar esa o'tgan yilgi 38%dan 29%ga tushdi. Jismoniy shaxslarning bank tizimidan foydalanish faolligi oshdi. O'tgan yilning birinchi choragida kredit portfelining 26,5% jismoniy shaxslarga tegishli bo'lsa, yil davomida bu ulush 6 foizga oshib, 32,1%ni tashkil etdi. Yuridik shaxslar ulushi esa 73,5%dan 67,9%ga kamaydi. Shuningdek, jismoniy shaxslarning depozitlar qoldig'i 6 foizga oshdi va 36,1%ni tashkil etdi. Yuridik shaxslar depozitlari esa 70%dan 63,9%ga kamaydi. Muammoli kreditlar salmog'i oshdi. Hisobot davrida 90 kundan ortiq muddatga kechiktirilgan kreditlarning jami kreditlardagi ulushi 4,4%ni tashkil etdi, o'tgan yilgi 3,8%ga nisbatan ko'paygan. Bank tizimining kapital monandlik ko'rsatkichlari esa o'zgarishsiz qoldi va minimal talabdan 1,3 barobar yuqori bo'ldi.

Xulosa. O'zbekiston bank tizimining rivojlanishi mustaqillikka erishganidan keyin amalga oshirilgan islohotlar asosida shakllandi. Mamlakatda bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida bank tizimining ahamiyati ortdi, chunki u iqtisodiy faoliyatning muhim komponentiga aylandi. Bank tizimi islohotlari mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, moliyaviy sektorni modernizatsiya qilish va xalqaro moliyaviy standartlarga moslashish bo'yicha aniq maqsadlarni ko'zlab amalga oshirildi. Mustaqillikdan so'ng amalga oshirilgan islohotlar, bank tizimining samaradorligini oshirish va uning xalqaro moliya bozorlariga integratsiyasini kuchaytirishga xizmat qildi. Bank tizimining ikki bosqichli tuzilishga o'tishi, Markaziy bankning mustaqil faoliyat yuritishi va tijorat banklarining xususiy sektor bilan uyg'unlashuvi kabi asosiy o'zgarishlar, mamlakatda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qildi. Shuningdek, tijorat banklari bozor iqtisodiyotining talablariga javob berish uchun yangilangan moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni joriy qilishga muvaffaq bo'ldi. Yangi yuridik baza, bank faoliyatini tartibga solish va tijorat banklarining ish uslublarini takomillashtirishda muhim rol o'ynadi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklarining mustaqil ishlashiga asoslangan qonunlar va me'yoriy-huquqiy bazaning yaxshilanishi, banklar faoliyatining samaradorligini oshirishga yordam berdi. Bank tizimida raqamli transformatsiya va

innovatsiyalarni joriy etish, xalqaro talablarga moslashish jarayonlari iqtisodiyotning yanada samarali rivojlanishiga yordam berdi. Bu islohotlar moliyaviy xizmatlarning xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini oshirdi va mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. O'zbekistonning moliyaviy sektoridagi innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, banklarga mijozlar bilan samarali aloqalarni o'rnatish, xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash va jarayonlarni tezlashtirish imkonini berdi. Kelajakda, bank tizimi yanada rivojlanib, bozor iqtisodiyotining yangi talablariga moslashishi kutilmoqda. Islohotlar jarayonining davom ettirilishi, innovatsion texnologiyalar va raqamli bank xizmatlarini kengaytirish orqali, O'zbekistonning moliyaviy sektori yanada barqaror va raqobatbardosh bo'lishi mumkin. Shuningdek, banklarning iqtisodiyotdagi o'rni kuchayib, xalqaro moliya bozorida O'zbekistonning roli oshishi kutiladi. Bank tizimining takomillashtirilishi va islohotlarning davom etishi, nafaqat mamlakatning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, balki iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish imkonini yaratadi. O'zbekistonning bank tizimida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, banklarning raqamli texnologiyalar va yangi moliyaviy xizmatlarni taklif etish qobiliyati yanada oshdi. Bu esa, nafaqat ichki bozorni rivojlantirish, balki xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, chet el investitsiyalarini jalb qilish va mamlakatning moliyaviy sektorini global miqyosda raqobatbardosh qilish imkoniyatlarini yaratdi. Shu bilan birga, iqtisodiy rivojlanish va barqarorlikni ta'minlash uchun bank tizimining yanada takomillashtirilishi, innovatsiyalarni joriy etish va xalqaro moliyaviy bozorlar bilan integratsiyani kuchaytirish zarurati saqlanib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2020). "O'zbekiston Respublikasi bank tizimi va uning rivojlanish jarayoni". Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki nashriyoti.
2. Karimov, I. (2015). "Bank tizimi va iqtisodiy islohotlar". Tashkent: Iqtisodiyot va Bank islohotlari nashriyoti.
3. Shodiev, N., & Mirzaev, M. (2018). "Bank tizimi va uning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni". Toshkent: O'zbekiston moliya institutining nashriyoti.
4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2022). "O'zbekiston bank tizimining huquqiy asoslari". Toshkent: Moliya vazirligi nashriyoti.
5. Jumaev, B. (2017). "Banklar faoliyatini boshqarish va moliyaviy texnologiyalar". Toshkent: Iqtisodiy nashr.
6. Asimov, A. (2019). "O'zbekistonda bank tizimining jahon iqtisodiyotiga integratsiyasi". Toshkent: Global iqtisodiy tadqiqotlar markazi.
7. Ergashev, M. (2021). "Moliyaviy texnologiyalar va banklar: rivojlanish istiqbollari". Toshkent: Innovatsiya va texnologiyalar nashriyoti.
8. UzDaily. (2024). "O'zbekiston bank tizimidagi islohotlar: holati va istiqbollari". O'zbekiston yangiliklari portalida.